

OLAMNING ILMIY MANZARASIDA MIFOLOGIK DUNYOQARASHNING O'ZIGA XOS ASOSLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14208096>

Pardayev Sultonmurod

*O'zbekiston Milliy universiteti,
"Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrası
katta o'qituvchisi,
falsafa fanlari doktori (PhD)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada olamning ilmiy manzarasini aks ettirish jarayonida mifologik dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlari falsafiy jihatdan ochib berilgan. Xususan, mifologik dunyoqarash orqali negizida yuzaga kelgan ilmiy bilimlarning insonlar falsafiy tafakkuriga ta'siri asoslab berilgan. Shuningdek, mifologik dunyoqarash asosida shakllangan olamning ilmiy manzarasining muhim tendensiyalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

Ulkan portlash nazariyasi, dunyoqarash, mifologik dunyoqarash, mif syujeti, haqidagi arxaik (ya'ni eng qadimgi) bilimlar, mifologik ong qobig'i, antropotsentrik manzara, xaus.

УНИКАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ МИФОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ В НАУЧНОЙ КАРТИНЕ МИРА

Аннотация

В данной статье в процессе отражения научной картины мира философски раскрываются уникальные черты мифологического мировоззрения. В частности, обосновано влияние научных знаний на философское мышление людей, основанное на мифологическом мировоззрении. Также выделены важные тенденции научного ландшафта мира, сформировавшегося на основе мифологического мировоззрения.

Ключевые слова

теория Большого взрыва, мировоззрение, мифологическое мировоззрение, мифологический сюжет, архаические (то есть древнейшие)

знания о, мифологическая оболочка сознания, антропоцентрический ландшафт, дом.

THE UNIQUE FOUNDATIONS OF THE MYTHOLOGICAL WORLDVIEW IN THE SCIENTIFIC VIEW OF THE WORLD

Abstract

In this article, in the process of reflecting the scientific view of the world, the unique features of the mythological worldview are philosophically revealed. In particular, the influence of scientific knowledge on the philosophical thinking of people based on the mythological worldview is justified. Also, the important trends of the scientific landscape of the world formed on the basis of the mythological outlook are highlighted.

Key words

Big Bang theory, worldview, mythological worldview, myth plot, archaic (that is, the oldest) knowledge about, mythological shell of consciousness, anthropocentric landscape, house.

KIRISH. Dastlabki dunyoqarash shakli bo'lgan mifologik dunyoqarash zamirida tabiatdagi barcha jonsiz narsalar jonli ekanligi ta'kidlangan, ularga nisbatan kishilarning noto'g'ri munosabatda bo'lishi xudolarni insonlardan g'azablanishiga olib kelgan, natijada insonlar boshiga turli darajadagi kulfatlar yog'ilgan, degan qarashlar shakllangan. Zero, o'sha davrlarda dunyoning tabiiy-ilmiiy manzarasida olamni tushunishning antropotsentrik manzarasi ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda F.X.Kessidining: «Antropotsentrik manzarada tabiat doimo mahobatli va aniq, inson esa kosmik ahamiyatga ega. Mifologik ma'noda tabiat bilan «qo'shilib ketish» darajasida kosmik emas, balki kosmosning insonda «mavjudligi» ma'nosida kosmikdir» (Кессиди Ф.Х., 1999. – С. 74.) degan fikriga qo'shilish mumkin. Shunga binoan aytish lozimki, qadimgi dunyoning tabiiy-ilmiiy manzarasini bu kabi yondashuvda tushunish ancha uzoq vaqt mobaynida insonlar ongida saqlangan. Xususan, inson va tabiat orasidagi o'zaro munosabatlarning antropotsentrik jihatdan tushunilishi insonlarning tabiat mavjudligi uchun yuqori darajadagi shaxsiy ma'suliyatga ega bo'lishiga va atrofni o'rab turgan muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabat bo'lishlariga olib kelgan.

N.A.Shermuxe medovanning fikricha: «Fiziklar Ulkan portlashdan oldinroq mavjud bo'lgan Olamning dastlabki singulyar holati haqida so'z yuritar ekanlar, bu dastlabki singulyar holatning substratlari tarkibi qanday bo'lgani haqida ishonchli

bir g'oyani hanuzgacha ilgari surganlari yo'q, balki makon va vaqt, materiya va energiya haqidagi hozirgi tasavvurlarni unga tatbiq etish mumkin emas, degan fikrlarni ro'kach qilish bilan qutulishga harakat qiladilar» (Шермухамедова Н.А., 2022. – Б.39). Shunga asoslanib aytishimiz mumkinki, eng qadimgi davrda odamlar dunyo tabiiy-ilmiy manzarasidagi barcha tabiiy-ilmiy hodisalarni mifologiya bilan bog'lab tasavvur qilganlar. Shunga ko'ra, ular tabiatdagi barcha narsa va hodisalarni jonli sifatida tasavvur qilishganligini dalil sifatida keltirish mumkin. N.A.Shermuxamedovaning: «Tabiat haqidagi arxaik (ya'ni eng qadimgi) bilimlar hali mifologik ong qobig'idan chiqmagan. Shunday bo'lsada, u davrdagi inson tabiat jarayonlari haqida uncha-muncha aniqlik darajasidagi bilimlarga ega bo'lgan», (Шермухамедова Н.А., 2017. – Б. 28.) degan yondashuvida dunyo tabiiy-ilmiy manzarasida mifologik bilimlarning tabiiy-ilmiy bilimlar bilan uzviy bog'liqligi asoslangan. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, insonlarning dunyo tabiiy-ilmiy manzarasi haqidagi bilimlari ularning deyarli barcha birlamchi ehtiyojlarini qondirgan.

Biz ushbu davrdagi shakllangan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini boshqa davrlardan farqini belgilovchi quyidagi xususiyatlarni tasniflashimiz mumkin: a) bu davrda hodisalarni tabiiy sabablarini tushuntirishga harakat qilingan; b) inson bilimi oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan; s) bilimlarni to'plash ma'lum bir tizim asosida olib borilgan; d) haqiqiy bilimni ilmiy jihatdan tushuntirishga harakat qilingan. Zero, bizning tahlilimizga ko'ra, ushbu xususiyatlar tabiiy-ilmiy tafakkur, eng muhimi falsafiy tafakkur tarzining asoslarini yaratish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, tabiatni o'rganishning birinchi obyektlari sifatida mif yuzaga chiqqan. Mazkur tarixiy jarayonning asosiy manbasi Gomer dostonlaridir. Darhaqiqat, Gomer yaratgan dostonlar qadimgi sinfchilik jamiyatida rivojlanib borgan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini mifologik va estetik jihatdan qayta ishlanishidir. Jumladan, o'sha davrda mifologik solishtirishlar ko'p holatlarda kundalik holatlar bilan almashtiriladi. Shunga ko'ra, Gomer qarashlarida mifologik bilimlar tabiatni talqin qilishning yagona yechimi bo'lmay qoladi. Shunisi e'tiborga sazovorki, u tabiatga boshqacha nazar bilan qaraydi va unga ko'ra koinot o'zining tabiiy, sababiy qonuniyatlari bilan aks etishini tan oladi. Rus olimi A.Losevning fikricha: «Gomerning skeptikizmini, uning an'anaviy tasavvurlarga nisbatan tanqidiy munosabatini, ba'zan uning qadimgi mifologiyadan intellektual noroziligi va bugungi kunda hurfikrlilik, deb atash mumkin bo'lgan miflarga nisbatan kulgi bilan yoki turli qochiriqlar va o'ynoqilarcha munosabatini shu bilan izohlash mumkin» (Лосев А.Ф., 1996. – С.4). Yuqoridagi fikrga tayanib, uning qarashlari qadimgi dunyoning tabiiy-ilmiy

manzarasida ongning ratsionallashuvi asosida mifologik ongning shakllanishiga katta xizmat qilgan, deb ta'kidlash mumkin. Darhaqiqat, A.Losev mif va logosni qiyoslash orqali ularning farqli jihatlarini ochib bergan. Gomer ishlab chiqqan falsafada Kosmos asosan makoniy, anglash mumkin bo'lgan tirik mavjudot sifatida tan olingan. Uning fikricha, olam – bu oddiy, geometrik jihatdan to'g'ri shakldir. Zero, bu kabi o'z-o'zini to'liq ta'minlovchi Kosmos ustidan vaqt hukm o'tkaza olmaydi. Biroq, bizning fikrimizcha, Gomer borliqning kelib chiqishi va uning kosmogonik jihatlarini, xronologik tomoni, ya'ni narsalar qanday qilib tabiiy ravishda o'z-o'zini dunyoga keltirishi bilan qiziqmagan. Shunga ko'ra, biz u o'z dostonlarida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini bir qator xususiyatlarini mifologiya orqali ratsional nuqtai nazardan ochib berishga harakat qilgan, deb xulosa qilishimiz mumkin.

METODOLOGIYA. Bizning fikrimizcha, inson paydo bo'lgan davrdan moddiy ehtiyojlarini ta'minlash jarayonida o'zining atrofidagi tabiatni o'zgartirgan. Natijada uning avlodi asta-sekin tabiatni o'zlashtirish orqali tabiiy hodisalarning mazmun-mohiyatini anglab, ularni turli darajada asta-sekinlik bilan talqin qilib borgan. Shu asosda dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi turli ko'rinishlarda mukammal ko'rinishga ega bo'lib borganligini aytish mumkin. Xususan, arxaik tasavvurlarga ko'ra, «Qadimgi yunon mifologiyasida olam dastlab cheksiz, qorong'i kaosdan iborat. Xaosdan yer xudosi Geya paydo bo'lgan. Yerdan juda uzoqda osmon va cheksiz chuqurlikda abadiy zulmat hukmdori Tartar paydo bo'lgan. Xaosdan hayot va muhabbat manbai Eros paydo bo'lgan. Shu tartibda dunyoda hayot paydo bo'lgan» (Шермухамедова Н.А., 2022. – Б. 39). Xususan, Qadimgi Xorazm mifologiyasida Xubbi suvlarning hukmroni va kishilarni halokatdan qutqaruvchi afsonaviy qahramon sifatida tasvirlangan. Unda aytilishicha, «Qadim zamonda Amudaryoda Xubbi ismli yigit hukmron edi. U bir qo'li bilan baliq tutar, ikkinchi qo'li bilan uni quyoshga tutib turar va keyin baliq bir zumda pishar ekan. Xubbi shu xilda baliq yeb, Amudaryoda 300 yil yashab, daryo suvini quritibdi, biron bir yomon ruh, hatto chivin ham daryoga yaqin yo'lashga botina olmagan» (Turdiqulov E.O., 2013. – B. 23.). Ushbu mifning ramziy ma'nosi shundaki, juda ko'p asrlar davomida Markaziy Osiyo xalqlari orasida Xubbi va uning onasi suvni himoya qiluvchi va baxt keltiruvchi ma'budlar sifatida e'tirof etilishida namoyon bo'ladi. Bundan bilishimiz mumkinki, Xorazmda paydo bo'lgan ushbu mifologiya dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining bir qator tabiiy mezonlarini aks ettirgan.

MULOHAZA VA NATIJALAR. Bizning fikrimizcha, buyuk koloniyalashtirish jarayoni ijtimoiy qarama-qarshiliklarni qisman bartaraf qilgan

bo'lsada, ularni butunlay bartaraf etishga erisha olmagan. Shu bois ham, Qadimgi Yunoniston o'z tarixidagi eng buyuk ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlardan birini boshidan kechirgan. Bularning barchasi polis yaxlitligini ta'minlash uchun ijtimoiy hayotda ratsionalistik ibtidoning boshlanishiga sabab bo'lgan. Xususan, mil. av. VIII-VII asrlarda qadimgi yunon jamiyati va uning transformatsiyasining yorqin vakili - bu Gesiod bo'lib, u o'zining «Teogoniya», «Ishlar va kunlar» kabi asarlarida dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining ilk kurtaklarini falsafiy jihatdan ifodalab berganligini kuzatish mumkin. A.Chanishevning fikricha: «Gesiod ta'biri bilan aytganda, Olamda avval kaos paydo bo'lgan. Keyinroq Tun - Nokta va Ereb - Iroqdan abadiy yorug'lik - Efir va yorug' kun - Gemera tug'ilgan» (Чанышев А., 1989. - С. 7.). Shuningdek, Gesiod o'z qarashlarida o'zidan oldingi epik an'analarni davom ettirib, oddiy dehqon va yerga ishlov beruvchi insonlar obrazini shakllantirgan. Ayniqsa, V.Verseyevning yozishicha: «Gesiod syujet vositasida yunon dehqonchiligi, yerga ishlov berish agrotexnikasi va qishloq xo'jaligi to'g'risidagi qarashlarini tarbiyaviy shaklda ifoda etgan» (Бепецаев В.В., 1984. - С. 24.). U shu bilan birga, xudolar tomonidan o'rnatilgan insonning borliqdagi tabiiy sharoitlari va dehqonlar hayotidagi dengizchilikning roli haqida bir qator g'oyalarni asoslashi bilan dunyo tabiiy-ilmiy manzarasiga yangicha chizgilar olib kirgan.

Misrliklarning olamning kelib chiqishi to'g'risidagi miflari bir qarashda rang-barang taassurot qoldirishi mumkin. J.Tulenov yozishicha: «Qadimgi Misr mifologiyasida hamma narsa suvdan paydo bo'lgan va hamma narsada havo bor». Bu miflarda xudolar, insonlar va olamning yaratuvchilari sifatida goh qushlar, goh hayvonlar, goh ilohlar ko'rinishida namoyon bo'ladi; bir afsonaga ko'ra quyosh samoviy sigirdan yaralgan, yana bir afsonaga ko'ra esa u loladan yaralgan, uchinchi afsonaga ko'ra esa - g'oz tuxumidan yaralgan. Qadimgi Misrning juda ko'p miflarida quyoshni yaratuvchi va olamni shakllantiruvchi ilohiy birlik sifatida biror hayvon yoki qush keladi. Bu haqida «Piramidalar matnlari»da ham ma'lumot bor va unda osmon tomonidan dunyoga keltirilgan oltin buzoqcha «Ra» to'g'risida fikr yuritilgan. Shu ma'noda Olam yaratuvchisi va barcha tirik mavjudotlarning onasi sifatidagi buyuk sigir to'g'risidagi qarashlar hozirgi davrda ham Afrika mamlakatlaridagi xalqlar og'zaki ijodida ham keng tarqalganligini aytish o'rinlidir.

Bizning fikrimizcha, Qadimgi Misrliklarning olam yaralishi to'g'risidagi afsonalari - bu deyarli har doim quyoshning yaralishi bilan bog'liq. Garchi afsona faqatgina quyoshning kelib chiqishi to'g'risida bo'lmasada, unda olam, undagi barcha mavjudotlar, jumladan insonning ham kelib chiqishi tasvirlansa-da, ularda asosiy o'rinni baribir quyoshning kelib chiqishi egallaydi va natijada asosiy

kosmogonik afsonalarda Quyosh xudosi olam yaratuvchisi sifatida maydonga chiqadi. Shunga ko'ra, Quyosh xudosining mazkur olam yaralishi haqidagi miflarda hal qiluvchi o'rniga mos ravishda, quyoshning o'zi ham turli quyosh bilan bog'liq afsonalarda asosiy o'rinni egallaydi. Quyoshning o'z dushmanlari - zulmat va suv stixiyasi - bilan abadiy kurashi, yil fasllarining almashishi va quyosh tutilishi haqidagi afsonalar - bu quyosh haqidagi asosiy miflardir, deb aytish joizdir. Misrdagi ijtimoiy munosabatlar ta'sirida Osirisga ishonchning asosiy jihati bu - podshoga va tabiat bunyodkor kuchlari xudosi sig'inishdir. Bundan xulosa qilish lozimki, butun Qadimgi Misrda shakllangan dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi zamirida tabiat bilan kurash va uning sir-sinoatlarini ochish jarayonlari orqali insoniyatning tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan intilishlari ham yuksalib borganligi muhim ahamiyatga egadir. N.A.Shermuxamedova yozishicha: «Dunyoning yaralishi haqidagi qadimgi hind kosmogonik va evolyutsion mifida esa, biz kosmogoniyaning tadrijiy talqiniga duch kelamiz. Bu yerda xaosdan Koinot vujudga kela boshlaydi va iloh - Brahma paydo bo'ladi, u olamni yaratish jarayonini davom ettiradi». Shu jumladan, u yerda paydo bo'lgan mifologiyaning asosiy manbasi - Vedalar tarkibidagi Rigveda, Samaveda, Yadjurveda va Atharvaveda kitoblariga tayanish lozim. Ushbu kitoblarda olamning paydo bo'lishi haqidagi dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasiga oid kosmogonik qarashlar bayon qilinadi. Unga ko'ra, butun koinot suvdan tashkil topgan, avval boshida koinotda osmon, yer, yorug'lik va qorong'ulik, ezgulik va yovuzlik kabilarni bo'lmaganligini ta'kidlash lozim. Fikrimizcha, mifologik bilimlar tabiatdagi tabiiy jarayonlar va qonuniyatlarni turli darajadagi real obrazlar orqali tushuntirib borgan. Bu esa dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasini ilk ildizlari aynan mifologik bilimlarga borib taqalishini asoslash mumkin.

Qadimgi Misrda shakllangan dunyo tabiiy-ilmiy manzarasi zamirida tabiat bilan kurash va uning sir-sinoatlarini ochish jarayonlari orqali insoniyatning tabiiy-ilmiy bilimlarga bo'lgan intilishlari ham yuksalib borganligi muhim ahamiyatga egadir. N.A.Shermuxamedova yozishicha: «Dunyoning yaralishi haqidagi qadimgi hind kosmogonik va evolyutsion mifida esa, biz kosmogoniyaning tadrijiy talqiniga duch kelamiz. Bu yerda xaosdan Koinot vujudga kela boshlaydi va iloh - Brahma paydo bo'ladi, u olamni yaratish jarayonini davom ettiradi» (Шермухамедова Н.А. , 2022. - Б. 40). Shu jumladan, u yerda paydo bo'lgan mifologiyaning asosiy manbasi - Vedalar tarkibidagi Rigveda, Samaveda, Yadjurveda va Atxarveda kitoblariga tayanish lozim. Ushbu kitoblarda olamning paydo bo'lishi haqidagi dunyo tabiiy-ilmiy manzarasiga oid kosmogonik qarashlar bayon qilinadi. Unga ko'ra, butun koinot suvdan tashkil

topgan, avval boshida koinotda osmon, yer, yorug'lik va qorong'ulik, ezgulik va yovuzlik kabilarni bo'lmaganligini ta'kidlash lozim.

XULOSA. Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, qadimgi Misr tabiiy-ilmiy manzarasi bir paytning o'zida eng sodda mifologik va ezoterik bilim sifatida amal qilgan, zero Misr germetizmi yashirin bilim manbai bo'lib, unda magiyaga alohida e'tibor qaratilgan, magiya esa, o'z davrida ibtidoiy ong tomonidan hali anglab etilmagan gravitatsiya, termodinamika va dunyoning o'zaro tortishish qonunlari doirasida amal qilib, bu dunyoning ezoterik manzarasi sifatida tan olingan. Dunyo tabiiy-ilmiy manzarasining dastlabki asosi sifatida miflar amal qilgan. Miflarning shakllanishi tabiiy sharoitlar va qabilalarning mentaliteti ta'sirida bir - biridan farq qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Шермухамедова Н.А. Фалсафага кириш. – Тошкент: Ношир, 2022. – Б. 39.
2. Шермухамедова Н.А. Табиатшунослик фалсафаси. – Тошкент: Ношир, 2017. – Б. 28.
3. Шермухамедова Н.А. Фалсафага кириш. – Тошкент: Ношир, 2022. – Б. 39.
4. Turdiqulov E.O. Markaziy Osiyoda ekologik ta'lim taraqqiyoti. – Toshkent: 2013. – B. 23.
5. Кессиди Ф.Х. От мифа к логосу // Становление греческой философии. – М.: 1972. – С. 74.
6. Чанышев А. Античная литература Греции. Антология. Ч. 1. – М.: 1989. – С. 7.
7. Гесиод. Труды и дни. перевод Вересаев В.В. – Москва: – М.: 1984. – С. 24.
8. Шермухамедова Н.А. Фалсафага кириш. – Тошкент: Ношир, 2022. – Б. 40
9. Кессиди Ф.Х. От мифа к логосу // Становление греческой философии. – М.: Наука, 1999. – С. 74.
10. Лосев А.Ф. Гомер. – М.: Наука, 1996. – С. 4.